

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 76 (1675), 2026-yil 17-aprel, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI XODIMLARIGA

Qadrlil yurtdoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni 18-aprel — O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari kuni bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

O‘z xizmat joyida kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan, fidokorona mehnat qilib, aholi, tashkilot va muassasalarning qulay va zamonaviy sharoitlarda yashashi va faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlab kelayotgan sizlar kabi mohir muhandis va ishchilar, usta hamda chilangarlar, mexanik va texnologlar, mutaxassislar hamda faxriylarga, ko‘pmillatli soha xodimlariga ushbu quvonchli ayomda chuqur hurmatimiz va ezgu tilaklarimizni bildirib, chin dildan rahmatlar aytamiz.

Aziz do‘stlar!

Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori xalqimiz turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin tutib kelayotgan kommunal tizimda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ilg‘or xalqaro tajribalar asosida uy-joylarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etilgani, ularga davlatimiz tomonidan zarur imtiyoz va kafolatlar berilgani xizmatlari sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, mamlakatimizdagi 45 mingta ko‘p qavatli uyning 90 foizdan ortig‘iga 1 mingdan ziyod ana shunday tashkilotlar xizmat ko‘rsatayotgani, so‘nggi 9 yilda 3 trillion 700 milliard so‘m mablag‘ hisobidan 51 mingga yaqin uylar ta‘mirlanib, 3 ming 500 ta lift yangisiga almashtirilganini ta‘kidlash lozim.

Sohada raqamlashtirish jarayonlari jadal olib borilayotgani tufayli salkam 42 mingta ko‘p qavatli uy va 1 million 500 ming nafardan ortiq mulkdorlar “Mening uyim” billing tizimida ro‘yxatga olindi. Bu esa boshqaruv tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni bevosita kuzatib, ularning faoliyatini baholab borish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, 3 ming 400 ta ichimlik va oqova suv inshooti va 42 ming kilometr dan

ziyod suv tarmoqlari barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Natijada yurtimizda aholini ichimlik suvi bilan markazlashgan tizim orqali ta‘minlash darajasi 2017-yildagi 63 foizdan hozirgi vaqtda qariyb 83 foizga yetdi. Issiqlik ta‘minoti sohasidagi keng ko‘lamli ishlar hisobidan qariyb 100 ta markaziy va mahalliy qozonxonalar, 1276 kilometr issiqlik tarmoqlari ta‘mirlandi va modernizatsiya qilindi.

Ayniqsa, 3 ming 800 dan ziyod ko‘p qavatli uy va 371 ta ijtimoiy obyekt ushbu tizimga ulangani diqqatga sazovordir.

Ayni vaqtda aholimizning hayotiy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Jumladan, 2030-yilgacha aholini ichimlik suvi bilan markazlashgan tarmoqlar orqali ta‘minlash darajasini 90 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, 103 ta qozonxonalar, 1 ming 600 kilometr issiqlik tarmoqlari barpo etiladi va rekonstruksiya qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida va xalqaro moliya institutlari ishtirokida esa 13 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bularning hisobidan markazlashgan issiqlik ta‘minoti qamrovi hozirgi 37 foizdan 58 foizga yetkaziladi.

Sizlar o‘zingizning bor kuch-g‘ayratingiz, bilim va tajribangizni safarbar etib, ana shunday ulkan vazifalarni ado etishga munosib hissa qo‘shasizlar deb ishonaman.

O‘z navbatida, mamlakatimizda kommunal sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi va xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bundan buyon ham davlatimizning e‘tibor markazida bo‘ladi.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin yurakdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, mehnat faoliyatingizda yutuq va omadlar, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

## UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI XODIMLARI KUNI NISHONLANDI

**Poytaxtimizda 18-aprel — Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari kuni munosabati bilan tadbir bo‘lib o‘tdi.**

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari Jalol Arashov uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangilanishlarning ahamiyatini aholi yuksak qadrlayotganini alohida ta‘kidladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigi o‘qib eshittirildi.

► **Davomi 2-beta**

## MEN UCHUN YANGI IJODIY BOSQICH BOSH LANDI

Prezidentimiz ko‘p ta‘kidlaydigan iboralar orasida men uchun eng qadrli va e‘tiborga moligi, shubhasiz, inson qadri. Inson qadri... Unga nima yetsin! To‘g‘ri, bugun menga berilayotgan davlat mukofotlari juda sharafli. Lekin davlatimiz rahbarining inson qadri haqidagi so‘zlari, avvalo, shaxsan o‘zi inson qadri qanday bo‘lishi kerakligini samimiy ko‘rsatib berayotgani men uchun nihoyatda aziz. Yaratganga behisob shukr, mana, 40-50 yildan oshdiki, el xizmatidaman. Bu e‘tibor va rag‘bat, ochig‘i, juda o‘ziga xos, ilgari hatto tushimizga ham kirmaydigan baxtning o‘zginasi bo‘ldi.

O‘ylab qaragam, el-yurtga qilingan xizmat, qo‘shilgan hissa halol bo‘lsa, albatta, samara berarkan. Men buni takror va takror aytishdan charchamayman: ota-onamning nasihatiyu duosi, tarbiyasiyu maktabi bejiz emas ekan. Demak, ularning qandaydir fayzu barakasi bo‘lgan. Mana natijasi. Aslida, e‘tirof yoki mukofot

haqida o‘ylamay turib halol xizmat qilish bizning asosiy vazifamiz va buni doimo bajonidil bajaramiz. Davlatimiz rahbarining ijodimizga bergan yuksak bahosi, bunday e‘tiborga sazovor bo‘lish men uchun qanday ulkan baxt ekanini so‘z bilan ifodalash qiyin!

► **Davomi 2-beta**

## HARBIY XIZMATCHILARNI IJTIMOY QO‘LLAB-QUVVATLASH, XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH ISHLARIGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevga 16-aprel kuni harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, rezerv va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, 9-may — Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan axborot berildi.**

Avvalo, armiyaning jangovar shayliti va tayyorgarligini mustahkamlash, shaxsiy tarkibga yangi tizim asosida ta‘lim berish va kasbga tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berildi.

Xususan, jangovar shayli yo‘nalishida qo‘shinlarda majmuaviy strategik va qo‘mondonlik shtab o‘quvlari, yig‘in, dala chiqishlari va o‘quv kurslari tizimli ravishda o‘tkazib kelinayotgani, bunda shaxsiy tarkibda axloqiy-ruhiiy, real jangovar vaziyatlarda qo‘rquv va emotsiyalarni boshqarish hamda dadil harakatlana olish kabi muhim jangovar sifatarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani qayd etildi.

Zamonaviy jangovar harakatlar tahlilidan kelib chiqib, barcha o‘quv, trening hamda mashg‘ulotlarda jang olib borishning yangi usul va shakllari o‘zlashtirilayotgani, bo‘linmalarining mobilligini, jangovar imkoniyatlarini va qo‘yilgan vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar ko‘rilayotgani yuzasidan axborot berildi.

Har yili mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi yurtimizda tinchlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, Vatani ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lganlar xotirasini yod etish,

bugun oramizda sog‘omon yashayotgan urush va mehnat faxriylariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishning yorqin amaliy ifodasidir.

Joriy yilda bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 30 million so‘m miqdorida bir martalik pul mukofotini to‘lash taklif qilindi.

Shuningdek, bu kunda urush qatnashchilari, front orti mehnat faxriylari, keksalar va ustozlarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, yolg‘iz va kam ta‘minlangan faxriylarning turar joylarini obodonlashtirish, turli xotira va qadrlash tadbirlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan Vatani fidoyilarining xotirasini ham ulug‘lanadi. Ularning oila a‘zolariga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatiladi.

Ona Vatanimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo‘lida jon fido qilgan harbiy xizmatchilarning mardligi va jasoratini targ‘ib qilishga qaratilgan ma‘naviy-vatanparvarlik tadbirlari o‘tkaziladi. Mamlakatimiz bo‘ylab “Burch, jasorat, matonat!” shiori ostida madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, ijodiy kechalalar, tanlovlar va ommaviy sport musobaqalari tashkil etiladi.

Taqdimotda rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yangi

bosqichga olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar ham ko‘rib chiqildi. Qayd etilganidek, dunyoda yuz berayotgan harbiy mojaralar tahliili urush davridagi safarbarlik ehtiyojlaridan kelib chiqib, tinchlik davrida harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ofitserlar zaxirasini shakllantirish va ularni mutaxassisliklar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda 4 ta oliy ta‘lim va 2 ta oliy harbiy ta‘lim muassasasining harbiy tayyorgarlik o‘quv markazlari va fakultetlarida 42 ta mutaxassislik bo‘yicha rezerv va zaxiradagi ofitserlar tayyorlanmoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda Urganch, Termiz, Andijon davlat universitetlari, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Andijon davlat tibbiyot institutida yana 5 ta harbiy tayyorgarlik o‘quv markazini tashkil etish taklif qilindi.

Shuningdek, davlat oliy ta‘lim muassasalarida qo‘shimcha ravishda “Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim” yo‘nalishi bo‘yicha 3 yillik bakalavriat ta‘limi asosida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Harbiy tibbiyot institutida esa ilk bor klinik ordinatura va magistraturaga qabul qilingan hamda harbiy tayyorgarlikdan o‘tish istagini bildirgan talabalar to‘lov-kontrakt asosida o‘qitiladi.

Bunday imkoniyat nodavlat oliy ta‘lim muassasalari talabalar uchun ham yaratiladi.

Bugungi kunda dolzarb bo‘lgan sun‘iy intellekt, dron, robototexnika kabi zamonaviy va tor mutaxassisliklar bo‘yicha ham zaxira ofitserlari tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari uchun ilg‘or xorijiy armiyalar tajribasi asosida yangi o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqiladi.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Joriy yil 13-yanvar kuni Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni raisligida o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida mazkur masala ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan edi.

Jumladan, Mudofaa vazirligi ofitserlariga xizmat yillari uchun to‘lanadigan har oylilik ustama miqdori ikki baravarga oshirish, kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan o‘ddiy askar va serjantlarning oylilik pul ta‘minotini 10 foizga ko‘paytirish taklif qilindi.

Prezidentimiz takliflarni qo‘llab-quvvatlab, ularning ijrosi harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzi va jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini ta‘kidladi hamda tegishli hujjatlarini imzoladi.

O‘ZA

## MADANIYAT VA TURIZM SOHASIDAGI LOYIHA VA TASHABBUSLAR ANIQ REJA ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat va turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Avvalo, Samarqand shahrida 9 gektar maydonda yangi Ipak yo‘li muzeyini barpo etish rejasini ko‘rib chiqildi. Loyihaga ko‘ra, ushbu muzey ekspozitsiyasi arxeologiya, tasviriy san‘at, amaliy san‘at materiallarini qamrab olgan 6 mingdan ziyod noyob eksponatlarni birlashtiradi. Muzeyda doimiy va vaqtincha ko‘rgazmalar uchun ekspozitsiyalar, 160 o‘rinli auditoriya, bolalar akademiyasi, konservatsiya va tadqiqot markazi, katta hajmli saqlash xonalari ham tashkil qilinadi.

Taqdimotda aholini madaniyat muassasalariga keng jalb qilish, ularning mazmun-mohiyati va ish uslubini zamon talablari asosida yangilash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Shu munosabat bilan respublikadagi 839 ta madaniyat markazini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish, binolarini zamonaviy qiyofaga keltirish, faoliyatiga xususiy sektorni jalb qilish, bu borada jozibadorlikni oshirish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi. Umuman, 2030-yilga qadar madaniyat sohasiga 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirilishi belgilandi.

San‘at sohasida iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularni quyi sinflardan maqsadli o‘qitish, o‘qish joyida yashab ta‘lim olishi

va ijod bilan shug‘ullanishi uchun munosib sharoit yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Andijon yoshlar simfonik orkestri hamda “Tumor” raqs ansambli faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bildirilgan takliflar ma‘qullandi.

Mediamarkadada milliy kontentlarni ko‘paytirish, sun‘iy intellektdan oqilona foydalangan holda milliy madaniyatimiz haqida ma‘lumotlar bazasini kengaytirib borish zarurligi ta‘kidlandi. Shuningdek, nodavlat madaniyat tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, nodavlat teatr va teatr-studiyalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularga loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar ajratib borish tizimi joriy etilishi belgilandi.

Shu yil boshidan mamlakatimizga 3 millionga yaqin sayyoh kelib, o‘shir sur‘ati 37 foizni, turizm xizmatlari eksporti esa 48 foiz o‘shir, 1,1 milliard dollarga yetgani qayd etildi. 2030-yilga qadar 20 million xorijiy sayyohni jalb qilish, 2026-yilda esa 12 million turistga xizmat ko‘rsatish maqsad qilingan.

► **Davomi 2-beta**

## TOSHKENT SHAHRI IQTISODIYOTIDA YUQORI O‘SISHNI TA‘MINLASH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri iqtisodiyotida yuqori o‘shir sur‘atlarini ta‘minlash, mavjud zaxiralarni to‘liq ishga solish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay sharoitlar yaratish yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.**

Yig‘ilishda bugungi kunda jahondagi siyosiy va harbiy ziddiyatlar, tashqi bozorlardagi o‘zgarishlar eksport janrlari va mahsulot yetkazib berish muddatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi ta‘kidlandi. Bunday sharoitda qo‘shimcha zaxiralarni aniqlab, ularni tezkor ishga solish ustuvor vazifa ekanini ko‘rsatib o‘tildi.

Poytaxt milliy iqtisodiyotda alohida o‘rin tutishi qayd etildi. Bugungi kunda Toshkent shahri yalpi ichki mahsulotning 21 foizini ta‘minlayotgan. Joriy yil “Poytaxtda jadal rivojlanish va aholi daromadlari o‘shirishi yili” deb e‘lon qilinib, shahar iqtisodiyotini 12 foizga oshirish, 3,6 milliard dollarlik eksportni ta‘minlash, 9 milliard dollar investitsiya jalb qilish va 616 ming aholi bandligini ta‘minlash kabi katta marralar belgilangan.

Shu munosabat bilan shahar hokimligi, uning 12 nafar o‘rinbosari va 12 ta tuman hokimi proaktiv ish tashkil qilib, sanoat, eksport, investitsiya va turizm sohasidagi ehtimoliy pasayishlarning oldini olishi zarurligi ta‘kidlandi. Prezidentimiz buning

uchun poytaxtda mehnat resurslari ham, moliyaviy imkoniyatlar ham yetarli ekanini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda joriy yil yangicha yondashuv asosida shaharning 12 ta tumani aniq bir sanoat yoki xizmat ko‘rsatish tarmog‘iga ixtisoslashtirilishi qayd etildi.

Jumladan, Bektemir tumani kimyo sanoati va ulgurji savdogaga, Mirzo Ulug‘bek tumani kabel sanoati, ilm-fan, ta‘lim va axborot texnologiyalariga, Mirobod tumani oziq-ovqat sanoati, turizm va umumiy ovqatlanishga, Uchtepa zargarlik, maishiy xizmat va chakana savdogaga, Chilonzor farmatsevtika, savdo, xizmat ko‘rsatish va turizmga, Yashnobod elektrotexnika hamda transport-logistikaga, Yakkasaroy yengil sanoat va moliyaviy xizmatlarga, Yangiyahoy avtomobilsozlik va logistikaga, Olmazor qurilish materiallari sanoati va ta‘limga, Sergeli esa metallurgiya, logistika va avtoservis sohaslariga yo‘naltiriladi.

► **Davomi 2-beta**



Sahifalarimizda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi milliy me‘morchiligimiz durdonasi sifatida e‘tirof etilayotgani haqida maqola, Birinchi Renessans zalidan o‘rin olgan ekspozitsiyalar tafsiloti bilan tanishish hamda markazga eltuvchi qadimiy Zarqaynar ko‘chasi bo‘ylab fotosayohat qilishingiz mumkin.



## MADANIYAT VA TURIZM SOHASIDAGI LOYIHA VA TASHABBUSLAR ANIQ REJA ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI

### Boshlanishi 1-betda

Endilikda har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, uning turistik salohiyatini oshirish bo'yicha manzilli dasturlarni amalga oshirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Shu maqsadda hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohani loyihaviy boshqaruv asosida tashkil etish choralarini ko'rib chiqildi. Xususan, 2026-2027-yillarda hududlarda 31 ta master-rejani amalga oshirishni boshlash, 40 mingdan ortiq ish o'ri yaratish, joylashtirish vositalari sonini 8 ming 250 taga, turizm qishloqlari va mahallalarining umumiy sonini 84 taga olib chiqish rejalashtirilgan.

Yangi sayyohlik mahsulotlarini shakllantirish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham qator mexanizmlar ko'zda tutilgan.

Jumladan, xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan targ'ibot xarajatlarining 25 foizgacha qismi, biroq 500 million so'mdan oshmagan qismi qoplab berilishi, turistlar uchun madaniy-ommaviy va sahnalashtirilgan tomoshalarni tizimli yo'lga qo'ygan xususiy tadbirkorlarni rag'batlantirish, servis sohasidagi mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida amaliy o'quv kurslarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Taqdimotda respublika turizm salohiyatini xalqaro bozorda keng targ'ib qilish bo'yicha ham yangi yondashuvlar ko'rib chiqildi.

Mutasaddilarga muhokama qilingan loyiha va tashabbuslarni puxta ishlab chiqish, ularni aniq hisob-kitob va rejalar asosida amalga oshirish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA

## TOSHKENT SHAHRI IQTISODIYOTIDA YUQORI O'SISHNI TA'MINLASH BO'YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

### Boshlanishi 1-betda

Toshkent shahrida nstandart takliflar ishlab chiqish maqsadida oxirgi ikki hafta davomida 23 mingdan ziyod tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilgani, 1 ming 300 dan ortiq muammo aniqlangani, shuningdek, tadbirkorlar tomonidan 162 ta yangi taklif va tashabbus bildirilgani ma'lum qilindi. Bu taklif va muammolarning birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerakligi ta'kidlandi.

Shuningdek, poytaxtda maxsus investitsiya va ishbilarmonlik muhitini joriy qilish orqali yangi tajriba yaratilishi belgilandi. Jumladan, biznes uchun ruxsatnoma va litsenziyalari berish vakolatini tegishli vazirlik va idoralardan ularning hududiy bo'linalariga tushirish, eksporthi korxonalarini qo'llab-quvvatlashning yangi yondashuvlarini joriy etish, tadbirkorlarning logistika bilan bog'liq muammolarini tekzor hal qilish tizimini yo'lga qo'yish, aylanma mablag' bilan ta'minlash va biznesni kengaytirish uchun qulay shartlarda yangi moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish nazarda tutilgani qayd etildi.

Tadbirkorlar ko'targan muammo va takliflarni tekzor hal qilish uchun alohida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish taklif qilindi. Uning zimmasiga tumanlarni drayver sohalari asosida rivojlantirish, iqtisodiy va

ijtimoiy konyunkturani doimiy monitoring qilish, o'sish nuqtalari va foydalanilmayotgan zaxiralarni aniqlash, tizimli to'siqlarni bartaraf etish, g'oya va tashabbuslarni shakllantirish, ularni moliyalashtirish va ijrosini nazorat qilish vazifalari yuklanadi.

Umuman, barcha imkoniyatlarni safarbar qilib, qo'shimcha 88 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, 4,9 milliard dollarlik eksportni ta'minlash va 5 milliard dollar investitsiya jalb qilish, byudjetga 2,9 trillion so'm tushum ta'minlash, 65,5 mingga yuqori daromadli va doimiy ish o'rnlari tashkil etish bo'yicha aniqlangan yangi zaxiralarni ishga solish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, joriy yilda Toshkent shahriga qo'shimcha 500 million dollar jalb qilish maqsadida poytaxt yevrobondlarini chiqarish taklif qilindi.

Poytaxt tadbirkorlarini Toshkent, Navoiy, Qashqadaryo, Andijon, Buxoro va Farg'ona viloyatlaridagi yirik sanoat korxonalarini bilan bog'lab, mahalliyashtirish va kooperatsiyani kengaytirish bo'yicha dastur tasdiqlash topshirildi.

Kelgusida yirik xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb etgan holda Toshkent shahri iqtisodiyotini chuqur tahlil qilish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

O'ZA

## UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH SOHASI XODIMLARI KUNI NISHONLANDI

### Boshlanishi 1-betda

Qayd etilganidek, sohada qabul qilingan muhim dastur va loyihalarning o'z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilishi, eng avvalo, ishchi-xodimlarning fidokorona mehnati, kasbiy mahorati va mas'uliyati samarasidir. Bugungi kunda poytaxtdagi ko'plab xonadon egalari tomonidan kommunal xizmatlar sifati yaxshilanayotgani mamluriyat bilan qayd etilib, soha vakillariga chuqur minnatdorlik izhor etilmoqda.

Mamlakatimizda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini modernizatsiya qilish, aholining turmush darajasi va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan islohotlar so'nggi yillarda izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar natijasida sohada nafaqat infratuzilma yangilanmoqda, balki xizmat ko'rsatish sifati, boshqaruv samaradorligi hamda qamrov darajasi bo'yicha ham ijobiy natijalarga erishilmoqda.

— Sohada ta'mirlash va modernizatsiya ishlari yildan yilga kengaymoqda, — deydi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining o'rinbosari Ozoda Jo'rayeva. — So'nggi 9-yil davomida 3,7 trillion so'm mablag' hisobidan

51 mingga yaqin ko'p kvartirali uy ta'mirlandi, 3,5 mingga lift uskunasi yangilandi.

2025-2026-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 9 ming 812 ta uyda ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bu o'tgan mavsumdagi 5 ming 409 ta uyga nisbatan qariyb 1,8 barobar ko'pdir. Shu bilan birga, boshqaruv tashkilotlari tomonidan qo'shimcha ravishda 6 ming 457 ta uyda 117 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Bu xususiy sektorning sohada faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Bayram tadbirida fidoyi xodimlar mehnati e'tirof etilib, tizimda ko'p yillardan beri mehnat qilib kelayotgan soha xodimlari va mehnat faxriylari "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish a'lochisi" ko'krak nishoni, qimmatbaho sovg'alar va faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Ushbu natijalar ortida minglab fidoyi mutaxassislarning mehnati mujassam. Ularning kasbiy mahorati, mas'uliyati va mehnatsevarligi sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar izchil davom ettirilib, kommunal xizmatlar tizimi kelgusida yanada zamonaviy va samarali bo'lishi kutilmoqda.

Shahnoza MAMATUROPOVA,  
O'ZA muxbiri



Farrux ZOKIROV,  
O'zbekiston xalq artisti,  
"Buyuk xizmatlari uchun"  
ordeni sohibi

### Boshlanishi 1-betda

Yaqinda nomim bilan yuritiladigan yangi musiqa maktabi ochilishi, unda yosh iste'dodlar va ansambllar faoliyat yuritishi, shuningdek, o'qituvchilarga ham alohida e'tibor qaratilishi haqida eshitib, hayratimni yashira olmadim. Rosti, bu yuksak e'tibor to'lig'icha davlatimiz rahbarining g'oyasi ekani meni lol qoldirdi. Chunki bu zo'r



## MEN UCHUN YANGI IJODIY BOSQICH BOSHLANDI

g'oya. Xudo xohlasa, u kelajak avlodning kamolotida mustahkam ildizlardan biri bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri, mening nomimdagi musiqa maktabi bo'lishi juda katta sharaf. Prezidentimizning o'zi bu tashabbusning barcha bandigacha belgilab berganida juda chuqur ma'no va an'ana mujassam deb bilaman. Bu kelgusida boshqa maktablar ham havas qiladigan dargohga aylanadi!

Yuksak e'tibor meni yanada ilhomlantirib, turli ijodiy g'oyalar tug'ilishiga sabab bo'lyapti. Yoshlar bilan ansambllar tuzamizmi, dasturlar va bayramlarda qatnashamizmi — ularning barchasi menga cheksiz ilhom bag'ishlamoqda. Xuddi o'z vaqtida yozilgan "Uchquduq", "Shahrisabz" kabi qo'shiqlarimiz qatorida bugun barpo

etilayotgan yangi shaharlarimiz nomi ham ijodimizda paydo bo'lsa, ajab emas. Shoir-larimiz yoza bo'ldi, qandaydir ohanglar o'z-o'zidan qalbdan quyilib kelyapti.

Bugun men uchun mutlaqo yangi ijodiy bosqich boshlandi. Hozirgi g'ayratim bilan hatto tog'larni talqon qilishga ham tayyorman! Kuchim yetguncha, umrimning oxirigacha shu jonajon Vatanimga xizmat qilishga yana bir bor ahd qildim hamda buni o'zim uchun katta sharaf, ayni paytda ulkan mas'uliyat deb bilaman. Bu mas'uliyatni butun ongim, qalbm bilan his etib turibman.

Yurtimiz hamisha tinch, diyorimiz obod bo'lsin! Biz, san'atkorlar mana shunday dorilamon, yaxshi kunlarda xalqimizning xizmatida bo'lishga doimo tayyormiz.



## Munosabat

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida madaniyat va san'at sohasiga alohida e'tibor qaratilayapti. Keyingi 10-yilda madaniyat va san'at sohasiga oid 4 qonuni, davlatimiz rahbarining 35 qaror va farmoni, Vazirlar Mahkamasining 100 ga yaqin me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani uchun ham O'zbekiston madaniyati yangilanmoqda, rivojlanish bosqichiga kirmoqda. Har yili 15-aprelning Madaniyat va san'at xodimlari kuni sifatida nishonlanayotgani bu borada muhim ahamiyat kasb etyapti.



Yusufjon USMONOV,  
madaniyat vaziri o'rinbosari

## SOHA XODIMLARINING EZGU MAQSADI

Ko'p yillar ishi to'xtab qolgan O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston Teatr arboblari uyushmasi, Xalqaro festivallar direktiyasi, "Bahor" davlat raqs ansambli faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu ijodiy jamoalarning madaniy hayotda o'z o'rini va xizmati bor. Shuningdek, Toshkent shahrida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti ochildi. Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi etib qayta tashkil qilindi.

2017-yilgacha vazirlik tasarrufida 333 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozir ushbu ko'rsatkich 382 tani tashkil etmoqda. 2017-yilda madaniyat va san'at yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning qamrovi 80,7 ming edi. Joriy o'quv yilida mazkur raqam 110 ming 245 nafarni tashkil qilib, yillik qamrov 29 ming 545 taga (36,6 foiz) ko'paydi.

Sakkiz-to'qqiz yil avval yurtimizda 37 teatr faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir ular soni 41 taga yetdi. Teatr san'ati vakillariga

qator imtiyoz va imkoniyatlar berildi. 2016-2023-yillarda 11 teatr mukammal ta'mirlanib, qayta jihozlandi. Repertuarlar boyitilayotgani tomoshabin qamrovining oshishiga xizmat qilyapti. Oxirgi yillarda 60 ga yaqin tarixiy spektakl sahnaga olib chiqildi. Tomoshabinlar qatnovi yillik rejaning 70 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2018-2022-yillarda yillik tashrif 4 millionga yetdi. So'nggi uch yillikda bu ko'rsatkich yanada ortganini ko'ramiz.

2016-2025-yillarda 8 ta nomoddiy madaniy meros obyekti UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi. Shuningdek, madaniyat va san'at yo'nalishida xalqor baxshichilik san'ati festivali, xalqaro maqom san'ati anjumani, "Lazgi" xalqaro raqs festivali, xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali, Xalqaro hunarmandlik festivali kabi bir qancha festival va anjumanlar tashkil etilmoqda. Xorijiy davlatlar bilan hamkorligimiz tufayli so'nggi 5 yilda 29 ta xorijiy davlatda O'zbekistonning madaniyat kunlari o'tkazildi. Iqtidorli yoshlarning

xalqaro tanlovlardagi ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Xususan, 215 nafar o'g'il-qizimiz AQSH, Italiya, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Latviya, Ispaniya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi davlatlarda o'tkazilgan nufuzli tanlovlarda ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egalladi.

Davr talabi asosida kechayotgan raqamlashtirish jarayonidan madaniyat sohasi ham chetda emas. Madaniyat vazirligi va tizimdagi tashkilotlarning 600 nafar rahbar va boshqaruv xodimi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'qitildi.

Bugun madaniyat va san'atimizda erishilayotgan yutuqlar tahlili keng qamrovli. Kamchiliklarni bartaraf etish borasida ham mas'ullar ishlayapti. Bundan buyon sohada tub burilishlar, islohotlar izchilligini ta'minlash, xalqimiz ishonchini oqlash — ezgu maqsadimiz. Nasib etsa, yutuqlar yutuqlarga ulanib, salmog'i yildan yilga ortadi. Zero, Madaniyat vazirligi tomonidan tizimni 2030-yilga qadar rivojlantirishning istiqbolli loyihalari ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilmoqda.

## BU E'TIBOR BIZGA MUSTAHKAM QANOT BO'LADI

Kuni kecha Prezidentimizning madaniyat va san'at xodimlariga yo'llagan tabrigi barcha ijod ahli qatori meni ham behad quvontirdi. Ayniqsa, tabrikda milliy kino san'atini rivojlantirish, jumladan, "Tirik tarix" turkumida g'oyaviy va badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratish borasidagi ishlarga yuksak baho berilgani biz uchun juda muhim.

Davlatimiz rahbarining "Sizlarning bilimingiz, tajribangiz va ijodiy salohiyatingiz milliy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishga ishonchim komil", degan so'zlari men kabi sohada faoliyat yuritayotgan ijodkorlarda katta faxr uyg'otdi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, milliy kino san'atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish, sohani qo'llab-quvvatlash, zamonaviy kinosanoat infratuzilmasini barpo etish kabi vazifalarni sidqidildan amalga oshirishimizda ushbu e'tirof bizga mustahkam qanot bo'ladi.



Karim MIRHODIYEV,  
O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi a'zosi,  
O'zbekiston xalq artisti

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan milliy kino san'atini zamon talabari asosida taraqqiy ettirish, kino ishlab chiqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, kinosanoatni takomillashtirish va barqaror rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ana shu e'tibor tufayli yuksak badiiy saviyadagi qator filmlar ishlandi. Ular jahon kinofestivallarida muvaffaqiyatli namoyish etilmoqda va mutaxassislarning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Kino sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston milliy kinofondi faoliyatining yo'lga qo'yilgani

ham so'nggi yillardagi islohotlarning yorqin ifodasidir.

E'tiborlisi, mamlakatimizda ijod sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli iqtidorli yoshlarning ijodga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Xususan, yosh dramaturglarning asarlari asosida teatrlarda yangi-yangi spektakllar sahnalashtirilmoqda.

San'atning hech bir turi qo'llab-quvvatlovsiz rivojlana olmaydi. Mukammal film yaratish yoki tomoshabin qalbidan joy oladigan spektakl sahnalashtirish sarmoya va katta mehnat talab qiladi. Yangi O'zbekistondagi yangilanishlar tufayli nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham e'tirof etilayotgan qator filmlar ishlanmoqda.

O'tgan yili "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" faxriy unvoni bilan taqdirlanganim men uchun katta sharaf bo'ldi. Bu nufuzli unvon zamirida davlatimizning san'at ahliga yuksak hurmati mujassam deb bilaman va kelgusida ham bunga munosib bo'lish uchun bor salohiyatimni ishga solamiz.



Gavhar ZOKIROVA,  
O'zbekiston xalq artisti

Atoqli shoir Shavkat Rahmonning "Bu dunyoda nima qoladi? Abadiy nurlar" degan teran fikri bor. Darhaqiqat, bu yorug' olamda insondan faqat ezgu amallar va mehrga tashna ko'ngil qoladi. Davlatimiz rahbari ana shunday minglab ko'ngillarga yo'l topa oldi.

Buning yorqin misoli sifatida O'zbekiston madaniyatida o'chmas iz qoldirgan Zokirovlar sulolasiga ko'rsatilayotgan ehtiromni keltirish mumkin. Agar ustoz san'atkor Karim Zokirov farzandlarining el-yurt oldidagi xizmati uchun shunday yuksak e'zoz va e'tirofqa sazovor bo'layotganini



## SAN'AT AHLIGA G'AMXO'RLIK

Davlatimiz rahbarining san'at va madaniyat sohasiga e'tibori alohida tahsinga munosib. Yaqin-yaqingacha soha xodimlari uchun faqat Teatr kuni bayram sifatida nishonlanar edi. Endi Prezidentimiz tashabbusi bilan san'atkorlar uchun alohida sana belgilandi. Bu voqea butun soha vakillari — nafaqat aktyorlar va xonandalar, balki sahna ortida zahmat chekayotgan minglab insonlar: dekoratorlar, rassomlar, libos ustalari va boshqa texnik xodimlar uchun ham katta tuhfa bo'ldi. Mazkur e'tibor millionlab ijodkorlarning ko'nglini tog'dek ko'tarib, ularga yuksak ishonch va quvonch bag'ishlamoqda. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda, bu e'tibor orqali har bir insonning ko'nglini topishga harakat qilinmoqda.



ko'rganda, cheksiz baxtiyor bo'lar edi. Har bir ota-onaning eng oliy orzusi — Vatanga naf keltiradigan, yo'lini munosib davom ettiradigan farzand o'stirishdir. Bugun ustoz san'atkorlarimizning ruhi shod. Chunki ularning merosxo'rlari xalqimiz xizmatida va davlatimiz ardorg'ida.

Ba'zan inson qalbidan kechayotgan hislarni ifodalashda hatto so'z ham ojizlik qilar ekan. Bugun yurtimizda san'at va madaniyat ahlini qadrlash borasida ro'y

berayotgan bu kabi g'ozal voqealarni ko'rib, dildagi hayajonni so'z bilan ta'riflash mushkul.

Bugun O'zbekistondagi yangi imkoniyatlarga, islohotlarga butun dunyo havas bilan qaramoqda. Yagona tilagimiz shuki, xalqimiz farovonligi va yurtimiz ravnaqi yo'lida zahmat chekayotgan davlatimiz rahbariga kuch-quvvat yor bo'lsin. Boshlangan barcha buyuk va xayrli ishlar bardavom bo'lishini tilaymiz.



Xabaringiz bor, bundan to'qqiz yil oldin mazkur majmuani barpo etish haqida maxsus qaror qabul qilib, amaliy ishlarni boshladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e'lon qilingan bu ezgu tashabbusimiz jahon jamoatchiligi, ayniqsa, islom hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Biz bu har jihatdan ulkan loyihani amalga oshirish uchun shoshilmadik, yetti emas, yetmish marta o'ylab, uzoqni ko'zlab, tinimsiz izlandik. Nihoyat, qadimdan Toshkentni azimning ma'naviy markazi bo'lib kelgan Hazrati Imom majmuasi yonida, ko'rib turganingizdek, betakror arxitekturaqa, chinakam milliy ruh va milliy qiyofaga ega bo'lgan sharqona shaharcha barpo etildi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

# TAMADDUN

## tafakkuri



E'tirof

## YANGI O'ZBEKISTON ME'MORCHILIGINING DURDONASI

### Minbar



Otobek ISROILOV,  
O'zbekiston Jurnalistlar  
uyushmasi a'zosi

Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilgan nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining shavkatli tarixiga tutilgan ko'zgu bo'ldi, deyish mumkin.

yurti ekanini darslik va tarixiy-badiiy kitoblarda o'qiganmiz, albatta. Biroq bu ulug'likni ko'z oldimizda gavdalantirish uchun tasavvurimiz, tan olaylik, bir qadar ojizlik qilib qolardi.

Bir misol. Mo'g'ullar istilosiga qadar hozirgi Nurafshon, Ohangaron va Olmaliq hududlarida Iloq davlati, uning poytaxti sifatida Nuket — hozirgi Nurafshon shahri gullab-yashnagan, savdo-sotiq, iqtisodiyot va madaniy hayot rivojlangan. Nurafshon shahridagi Ulkan To'ytepa arxeologik yodgorligidan topilgan va O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan ossuariy ham buni tasdiqlaydi.

Olmaliqlik hurmatli professorimiz Abdurashid Hasanov tomonidan tayyorlangan eksponatlarda bundan ming-ming yillar muqaddam O'zbekistonda, aynan Toshkent viloyatida tog'-kon sanoati juda yaxshi rivojlanganini ko'rish mumkin. Ibtidoiy jamoalar davrida ba'zi o'lkalarda odamlar qayroqtoqsh yordamida olov yuqib, hayvon terisini oshlab-oshlamay, unga o'rnatib yurgan bir vaqtda zukko ajdodlarimiz o'z dastgohlarida olovni o'ynatib, yer osti qazilmalariga ishlov bergan va bu orqali konchilik sanoati hamda uni qayta ishlash texnologiyalarini yaratgan.

Albatta, faxrlanadi, faxrlanish orqali quvonadi kishi.

Sinoni tibbiyotdagi muvaffaqiyatlari sari germaniyalik shogirdi Rob Koul ruhlantirgani edi. "Vikipediya"da Rob Koul XIX asrda yashaganini ko'r ham o'qiy oladi! Ustiga ustak, bu filmda "Tib qonunlari" haqida lom-mim deyilmagan.

Tabiatan kurashuvchan, mard va zukko bo'lgan Ibn Sino o'z odam sifatida gavdalanirgan. Hatto film ijodkorlari hakimning vatolini ham soxtalashirgan. Bu nafaqat tarixga tahdid, Ibn Sino shaxsiga hurmatsizlik hamdir! Qolaversa, dunyo tibbiyoti otasi Isfahonda vafot etmagan-ku. Shayx ur-ra'is o'z joniga qasd qilib, xudkush ham bo'lmagan! Xastalik oqibatida safar chog'i qazo qiladi va Hamadonga dafn qilinadi.

To'g'ri, rejissyor Filipp Shtyolsl filmida senariy ishi, rejissyor ishi, operatorlik ishi, aktyorlar mahorati, hammasi ham chakkimas. Ammo tarixiy haqiqat-chi? Mantiq-chi? Ochig'i, hafsalam pir bo'ldi. "O'rtoq "O'zbekfilm", xalqning kutar so'z", degan xalqchil shoirimiz Muhammad Yusufning satrlarini esladim.

Allomalarimiz to'g'risida milliy badiiy asarlarimiz, milliy kinolarimiz, milliy ilmiy tadqiqotlarimiz faqat o'zimiz yo chora-tadbirlarda belgilangani uchun emas, vijdonan yaratilishi kerak. Bu asarlar jahon hamjamiyati saviyasi va darajasida bo'lmay ekan, tariximiz to'g'risida deb atagan.

ma'naviy merosni tiklashga qaratilgan muhim loyihalar amalga oshirilayotganidan voqif bo'ldik. Shunday loyihalardan birida jahon islom san'ati tarixida benazir namuna sifatida tan olingan asar — Umar Aqta' tomonidan XIV-XV asrlarda Amir Temur buyurtmasiga binoan yaratilgan ulkan Qur'on qo'lyozmasining nusxasidir. Buni shunchaki kalligariya deb bo'lmaydi.

Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur o'z saroyi uchun shunday Qur'on yaratilishini istaganki, u o'qilganda odamlar hayratdan jim bo'lib qolsin. Dastlab Umar Aqta' unga uzuk ko'ziga joylashadigan darajada kichik nus'ha'f hadya qiladi. Ammo Sohibqiron bundan mamnun bo'lmagan va "Qur'oni karimni bu qadar kichraytirish Allohning kalomiga munosib emas", deya fikr bildirgan. Shundan so'ng Umar Aqta' o'sha zamon uchun mislsiz hajmga ega nus'ha'f bitishga kirishgan. Bu ish nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan ham ulkan mehnat talab qilgan. Tokay XXI asrning ilk yillarigacha bu qo'lyozma dunyodagi eng yirik Qur'on kitobi, deya e'tirof olgan.

Mazkur Qur'onning har bir sahifasi 1,25 x 2,25 metr hajmda. Bunday ulkan sahifalarni oddiy odam ko'tara olmagan — ular maxsus aravalarda Temur saroyiga olib kiritilgan. Shunga ko'ra, ba'zi tadqiqotchilar ushbu nus'ha'fni "elephantine Qur'an" ("fidek ulkan Qur'on") deb atagan.

Afsuski, ushbu qo'lyozmaning to'liq nusxasi saqlanmagan. Ammo uning bir qancha sahifalari dunyo muzeylarida, yirik kolleksiyalarda saqlab kelinmoqda. London, Nyu-York, Vashington va Torontodagi muzey va galereyalardagi nus'ha'f shular jumlasidan. Prezidentimiz tashabbusi bilan Londondagi nufuzli "Sotheby's" savdo uyi tomonidan o'tkazilgan auksionda ushbu noyob Qur'on qo'lyozmasining sahifasi sotib olindi va O'zbekistonga olib kelindi. Hozirgi kunda yurtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markazida saqlanmoqda.

### G'urur va mas'uliyat

Markazda akademiya, kutubxona, arxiv va qo'lyozmalar fondi tashkil etilgani ayni muddao bo'lgani e'tirof etilmoqda. Ularda bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va ulamolarning tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir mamlakatimiz va chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori atiqalar, shu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari, video va fotohujjatlar jamlangan.

Ilk marta rasmiy manbalarda 2017-yilning sentyabr oyida Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasiga tutash hududda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilishi to'g'risida xabarlar tarqalgan edi. Oradan o'n yilga yaqin vaqt o'tib, reja va loyihalar bugun ko'z oldimizda qad rostlab turibdi. Bu markazning qurilish jarayonlari haqida shu yerda qurovchi, yuk mashinasi haydovchisi sifatida xizmat qilgan yaqin birodarlarimdan eshitgan edim. Ammo yuz marta eshitganidan bir marta ko'rgan afzal deb bekorga aytilmas ekan.

Islom sivilizatsiyasi markazi bilan tanishish orqali bu tarixiy-ilmiy maskan yangi O'zbekiston me'morchiligining betakror va bebaho durdonasi bo'lganini e'tirof etamiz, g'urur va mas'uliyat hissini tuyamiz. Bunga imkon va sharoit yaratgani uchun barchaga tashakkur!



### Tarix va talqin

O'zbekiston — tamaddunlar tutashgan tarixiy nuqta. Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davri va bu davrlarda yaratilgan kashfiyotlar haqida so'zning o'zi ortiqcha. Biroq bir alam ko'ksimni bo'ridek timar edi.

Gap shundaki, 2013-yilda Germaniya kinoijodkorlari tasvirga olgan "Tabib: Ibn Sino shogirdi" filmi yaqinda tomosha qildim. Bu filmda buxorolik qomusiy alloma va ulug' hakim Abu Ali ibn Sino hayotining so'nggi yillari badiiy tasvirga olinadi. Ammo shu orqali Markaziy Osiyo tarixiga tahdid qilinadi, faktlar noto'g'ri ko'rsatiladi, saljuqiylar bosqinchi sifatida namoyish etiladi va o'tib tushgani, Ibn Sino xudkush sifatida talqin qilinadi. Bundan-da ko'proq alam qiladigani esa Ibn

ular to'qigan cho'pchaklarni eshitib o'tirishga majbur bo'lib qolamiz. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan Kinematografiya agentligiga berilayotgan imkoniyatlar, ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar beiz va bejiz ketmasligiga umid qilib qolaman. Zero, Islom sivilizatsiyasi markazi ko'hna tariximizni shoda-shoda marjon kabi ko'z oldimizda yaqqol ko'rsatib turibdi.

### Ko'hna moziy shodasi

Yana bir fikrni aytib o'tishni burchim deb hisoblayman. Ya'ni markazdagi deyarli barcha eksponatlar haqiqiy. Dunyoning turli nuqtalariga tarqalib ketgan noyob durdonalar ham vatanimizga qaytarilmoqda.

Bu muazzam maskan bilan tanishish asnosida O'zbekistonda islom tamadduniga oid boy ilmiy va

## "GINNESSNING REKORDLAR KITOBI" BIZGA BEGONA EMAS

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi dunyodagi eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi sifatida rasman e'tirof etildi va nufuzli Guinness World Records mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu haqdagi sertifikatni markaz ilmiy kengashi a'zolariga tantanali topshirish marosimida rasmiy vakil va hakam Sheyda Subashi ishtirok etdi. Tadbirda loyihani amalga oshirishga salmoqli hissa qo'shgan arxitektor, loyihachi, dizayner va qurovchilar ham hozir bo'ldi.

Hazrati Imom majmuasi hududida joylashgan ushbu markaz ulug'vor me'moriy ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Huddud maydoni 10 gektar, binoning uzunligi 161 metr, kengligi 118 metr, gumbazining balandligi 65 metr, xonalarning umumiy maydoni esa qariyb 50 ming kvadrat metрни tashkil etadi. Aynan shu xususiyatlar jahon rekordiga asos bo'lgan.

— O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi boy tarixiy meros va zamonaviy muzey texnologiyalari uyg'unligini namoyon etuvchi noyob namunadir, — deydi Sheyda Subashi. — Majmuaning ko'lami, konseptual yaxlitligi va amalga oshirish darajasi Guinness World Records mezonlariga to'liq mos keladi. Bu nafaqat eng yirik muzey, balki madaniyatlar muloqoti va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazish uchun zamonaviy platforma hamdir.

Ayni paytda markaz mintaqadagi eng ko'p tashrif buyuriladigan ilmiy-madaniy maskanlardan biriga aylanib ulgirdi. Bu yerga har kuni 5000 nafargacha tashrif buyuruvchi kelmoqda. Guinness World Records unvonining berilishi nafaqat loyiha ko'lamlarining e'tirofi, balki uni amalga oshirishda ishtirok etgan yuzlab mutaxassis, olim va ekspertlar mehnatiga berilgan yuksak bahodir.

— Shubhasiz, bu mukofot O'zbekiston Prezidentining mulkiflik loyihasi berilgan munosib e'tirofdir, — deydi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdullolqov. — Endi mavjud salohiyatdan samarali foydalanib, O'zbekistonning boy madaniy merosini asrash va ommalashtirishga qaratilgan keng ko'lami ilmiy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, islomning ezigulik, tinchlik, ma'rifati va bag'rikenglik dini ekanini targ'ib qilishni davom ettirish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Guinness World Records e'tirofi O'zbekistonning islom ilmi-fani, madaniyati va ma'rifati sohasidagi muhim sayyohlik va tarixiy markaz sifatidagi o'rni yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, markazning o'zaro hurmat, bag'rikenglik va madaniy xilma-xillik tamoyillariga asoslangan sivilizatsiyalar muloqoti uchun zamonaviy platforma ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Nodir MAHMUDOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Tasnif**

Ekspozitsiyada islom dinining Movarounnahrda tarqalishi, mahalliy aholi madaniyatiga ta'siri, olimlarning islom ilmlari rivojiga hissasi ko'rsatilgan. Shu paytgacha Qusam ibn Abbas, Abu Hafis Kabir kabi shaxslarning hayoti va ilmiy merosi yetarli darajada o'rganilmagan. Ekspozitsiyada esa ular haqidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratilgan.



**Firuza ABDUSAGATOVA,**  
O'ZMU katta o'qituvchisi

**Vaqt devori**

Ushbu bo'limdan islom dinining tarqalishi, Bayt ul-hikma akademiyasida faoliyat yuritgan allomalar, Ma'mun akademiyasi tasvirlangan uchta yirik, mahobatli rangtasvir asari o'rin olgan. Shuningdek, devor bo'ylab turli davrlarga oid eksponatlar, numizmatika namunalari, xarita, videorolik, interaktiv o'yinlar joylashtirilgan.

Zal markazida Birinchi Renessans davrida barpo etilgan somoniylar maqbarasi, Mag'oki Attoriy masjidi, Chashmai Ayyub yodgorligi, Qusamiya madrasasi singari yodgorliklar maketini ko'ramiz. Shuningdek, saljuqiylar davrida tayyorlangan zargarlik buyumlari, ikki boshli burgut tasvirlangan davlat tug'rosi ham ziyoratchilarni befarq qoldirmaydi. Bu osori atiqalar Prezidentimizning topshirig'i asosida xorijdan qaytarib olib kelingan.

Zal to'rida muqaddas Ka'baning eshigi nusxasi va 1988-yili ishlatilgan ka'bap'o'sh (kisvaning asl nusxasi joylangan. Shuningdek, bu yerda Ka'baning



**BIRINCHI RENESSANS EKSPOZITSIYASI**

XIII-XIV asrlarda Misrdan mamluklar davrida yasalgan kalitlarini, kisvaning 2023-yili Saudiya Arabiston Podshohi Salmon ibn Abdulaziz O'zbekiston rahbariga tuhfa qilgan parchasini ko'rish mumkin.

Shuningdek, ushbu zaldan Birinchi Renessansga bag'ishlangan 4 daqiqali rolik ham o'rin olgan.

**Kapsulalar**

Zalning o'ng tomonida yettita kapsula bo'lib, ularning har biri Birinchi Renessansga aloqador

nusxasi, Ka'ba surati va duolar bitilgan kashmalar, Qur'oni karimning IX-XI asrlarga oid sahifalari va qo'lyozmalari o'rin olgan.

Ikkinchi kapsula Bayt ul-hikmaga bag'ishlangan. Buyuk olim Muhammad Xorazmiy unda rahbar sifatida faoliyat yuritgan, algebra faniga asos solgan. Bayt ul-hikmada faoliyat yuritgan yana bir olim Ahmad Farg'oniydir. U Nil daryosida qurilgan maxsus suv o'lchovchi asbob — nilometrni tubdan takomillashtirgan. Bu nilometr gidrostatika qonuniga asosan ishlagan.

Abu Nasr Forobiy siyosiy falsafa va ijtimoiy psixologiyaga bag'ishlangan "Fozil odamlar shahri" asarini yozgan. Unda namunaviy davlat modelini tavsiflab bergan. Shuningdek, "Musiqqa haqidagi katta kitob"da musiqqa nazariyasi va tarixi haqida tizimli ma'lumot bergan, ud cholg'u asbobini yaratgan. Prezidentimiz alloma merosiga alohida to'xtalib, Forobiyning Markaziy Osiyo tarixidagi muhim siymolardan biri ekanini ta'kidlagan edi.

Uchinchi kapsula Ma'mun akademiyasi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari allomalar merosiga bag'ishlangan. Beruniy yashagan davrni dunyo olimlari "Beruniy asri" deb atagan. Bu e'tirofni Frederik Starr ham ko'p ta'kidlagan. Beruniyning "Tafhim", "Osor ul-boqiya" asarlari, Abu Ali ibn Sino asarining XIV asrga oid ibroniy tilidagi tarjimai faksimile nashri hamda "Kitob ush-shifo"ning 1494-yili Hirotda ko'chirilgan nusxasi joylangan.

To'rtinchi kapsulaning quyi qavatida ushbu ekspozitsiyaga doir ikki daqiqali rolik tomosha qilasiz. Ikkinchi qavatda Abu Rayhon Beruniy 1037-yili ishlab chiqqan va o'zbek olimlari qayta tiklagan yarim sharni ko'rishingiz mumkin.

Markaz faoliyatida somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar davridagi sivilizatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Vitralarda har bir davr bo'yicha alohida artefaktlar, miniatyuralar, ma'lumotlar jamlangan.

Shuningdek, keyingi uchta kapsula islom ilmlarining buyuk namoyandalari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturiy singari allomalarga bag'ishlangan. Ularning maqbaralari maketi, asarlari, hayoti va faoliyati bilan tanishish imkoni mavjud.



mavzularga qaratilgan. Mazkur kapsulalarda turli videorolik, qo'lyozma, tarixiy artefakt, maket va mulyajlarga duch kelasiz.

Masalan, birinchi kapsulada islom dinining tarqalishi bilan bog'liq ma'lumotlar, video va interaktiv matnlar, Muhammad alayhissalomning jahon hukmdorlariga yuborgan maktublari

Shu qurilma yordamida Nil daryosidagi suv hajmi o'lgan. Bir yillik suv miqdori, Nil deltasida olinadigan hosil oldindan hisoblab berilgan. Shunga qarab, davlat aholidan soliq undirgan. Qurg'oqchilik yoki suv toshqinlari oldindan taxmin qilingan va ularga tayyorgarlik ko'rilgan.

**Bir eksponat tarixi**



**80 MING YILLIK TOSH QUROL VA KAMON O'QLARI UCHI**

Ekspozitsiyalardagi nodir eksponatlardan biri bundan 80 ming yil avval hozirgi Toshkent viloyati hududida foydalanilgan tosh qurollar va kamon o'qlari uchidir. Obirahmat g'oridan topilgan ushbu tosh qurollar o'rta paleolit davriga (miloddan avvalgi 100-40 ming yillikka) mansub bo'lib, Markaziy Osiyo hududida inson faoliyatini o'rganishda muhim ilk arxeologik manbadir. Ushbu topilmalar asosan chaqmoqtoshdan yasalgan, ayrim namunalarda kvarsit va boshqa mustahkam tosh jinlaridan ham foydalanilgan.

Qurollar urib yo'nish va qirg'ib shakl berish usullari orqali tayyorlangan. Ular orasida pichoqsimon plastinalar, qirg'ichlar, teshgichlar, nayza va kamon o'qlari uchi kabi turli funksiyaga ega ashyolar mavjud. Mazkur qurollar qirg'ish, teshib o'yish, hayvon terisini ishlash, yog'ochga ishlav berish, suyakni parchalash hamda ov qilish jarayonlarida keng qo'llangan.

Shuningdek, mikrolitlar, ya'ni kichik o'lchamli, o'ta uchli tosh qurollar ham ibtidoiy inson tafakkurining muhim yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ular, ayniqsa, mezolit va neolit davrlarida keng tarqalgan bo'lib, murakkab kompozitsion qurollar, masalan, yog'och

yoki suyak asosga joylashtirilgan o'qlar uchini tayyorlash imkonini bergan. Xomashyo sifatida chaqmoqtosh, kvarsit va obsidian kabi jinlar ishlatilgan.


Mazkur arxeologik materiallar ibtidoiy odamlarning ovchilik xo'jaligi, mehnat malakasi va texnologik tajribasi muayyan darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ular insonning tabiat ne'matlaridan ongli va maqsadli foydalanishni o'rgangani, mehnat jarayonida tajriba to'plab, qurolsizlik an'analarini takomillashtirganini yaqqol namoyon etadi.

**Azizbek YUSUPOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Fotosayohat**

**MARKAZGA ELTUVCHI KO'CHA**

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tiklanishi barobarida Xastimom mahallasi hududi, unga tutash ko'plab ko'cha, maydon va inshootlar ham yangidan chiroy ochdi, misli ko'rilmagan darajada obod bo'ldi. Majmua aholi, qolaversa, poytaxtliklar va mehmonlar uchun ma'naviyat o'chog'iga, tarix ko'zgisiga, madaniy hordiq chiqaradigan maskanga aylandi.



Eskijo'va bozori yoki Abdulla Qodiriy ijod maktabi tomonidan Zarqaynar ko'chasi bo'ylab Islom sivilizatsiyasi markazi sari piyoda yursangiz, poytaxt mahallalarining azaliy fayzu tarovatiga oshno bo'lasiz.

Ushbu tor va uzun ko'chada olib borilgan qadimiy uslubdagi ta'mirlash ishlaridan nafaqat xorijiy sayyohlar, balki mahalliy aholi — yoshu keksa hayratga tushmoqda.

Bundan tashqari, tarixiy Qorasaray ko'chasini ham bugun tanish qiyin. Bu yerdan o'tkazilgan avtomobillar uchun yer osti yo'li, ikki chekkada mumtoz uslubda qad rostlangan mehmonxonalar, savdo rastalari majmuaning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.



**Mulohaza**

So'nggi yillarda sun'iy idrok va raqamli texnologiyalarga asoslangan xalqaro loyihalar jadal ommalashib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Aksariyat rivojlangan davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aynan shunday innovatsiyalar bilan hamohang olib borish allaqachon kundalik zaruratga aylangan.



# RAQAMLI DAVR MUTAXASSISI

faqat bir sohani bilishi yetarliymi?

Prezidentimizning 2026-yil 4-apreldagi "Mamlakatda yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini joriy qilish hamda ilm-fanni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ayni shu muhim maqsadlar o'zining aniq ifodasini topgan. Mazkur maqsadlar oldimizda turgan o'ta muhim vazifalarni sun'iy idrok imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirgan holda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Endi o'zlashtirilgan bilimlarni qalin kitoblarda yoki faqat nazariyada qoldirmay, zudlik bilan tijoriylashtirish, texnologik transferlarni yo'lga qo'yish kabi amaliy qadamlarga o'tish fursati yetdi. Bugun biz tayyorlayotgan kadrlar shunchaki bilimlar egasi emas, balki o'zlashtirgan ko'nikmasini iqtisodiy va ijtimoiy qadriyatga aylantira oladigan zamonaviy mutaxassislar bo'lishi qat'iy talab etilmoqda.



**Nozliya NORMURODOVA,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

Gumanitar yo'nalishga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari orasida uzoq yillar davomida saqlanib kelgan va muayyan ma'noda taraqqiyotga to'siq bo'lgan eski qarashlar mavjud. Endi texnologik jarayonlar faqat aniq fanlarga aloqador degan yangilash fikrdan butunlay voz kechish vaqti keldi. Hozirgi mutaxassis uchun faqat o'z yo'nalishi doirasida bilimga ega bo'lish yetarli emas. U sohalararo, ya'ni fanlarning o'zaro tutashuv nuqtalarida ham erkin harakatlanish o'z nikmasini puxta o'zlashtirishi shart. Kompyuter lingvistikasi va sun'iy idrok kabi murakkab yo'nalishlarni adabiyot, tarjima-shunoslik, sotsiologiya, psixologiya hamda xalqaro munosabatlar singari an'anaviy gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'lash orqali mullaqo yangi, istiqbolli tarmoqlarni kashf etish dolzarb ehtiyojga aylandi. Ulkan matnlarni avtomatik tahlil qilish,

qilinayotgan har bir davlat dasturini quruk yodlash yoki shunchaki qog'ozda ijro etish bilan cheklanib bo'lmaydi. Aksincha, ulami zamonaviy talablar, innovatsion yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalar nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilib, ta'lim tizimiga moslashtirgan holda tatbiq etish yagona to'g'ri yo'ldir. Shundaygina oliygohlarga sarflanayotgan davlat samoyasi va xususiy investitsiya o'zini to'la oqlaydi hamda jamiyat uchun real manfaat keltiradigan ilmiy mahsulotlarga aylanadi.

Shunday keng ko'lamli islohotlar xalqaro maydonda ham mutaxassislar diqqat markazidan chetda qolayotgani yo'q. Nufuzli xalqaro reyting agentliklari oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda sun'iy idrok elementlarining fan dasturlariga qay darajada singdirilganiga qat'iy e'tibor qaratmoqda. Reyting tuzuvchilar universitetning umumiy strategik rejasidagi axborot texnologiyalariga oid jihatlarni eng muhim mezonlardan biri sifatida qabul qilaypti. Endi ta'lim dargohlari yana bir o'ta jiddiy va murakkab chig'iridigan, aniqrog'i, texnologik moslashuvchanlik sinovidan o'tkazilmoqda. QS xalqaro reyting agentligining aynan fanlararo yondashuvni baholovchi maxsus ro'yxatida yuritimidagi yettita universitet e'tirof etilgani qilingan mashaqqatli mehnatlarning dastlabki samarasi bo'ldi.

Yosh avlodni faqat yirik shaharlarda emas, eng chekka va olis hududlarda ham zamonaviy ilmlarga oshno qilish ta'lim siyosatining o'zak masalasiga aylanib bormoqda. Xususan, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan yuqori darajadagi sertifikatlarga ega mutaxassislar o'z qishloqlarida maxsus o'quv markazlari ochish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani e'tiborga molik.

Ana shunday tashabbuslar zamirida yoshlarga nafaqat sifati ta'lim berish, balki ulami moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli imtiyozli sarmoyalar ajratish orqali hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutini keskin qisqartirish maqsadi mujassam.

Olimlarimizning fundamental va amaliy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishda sinab ko'rish hamisha katta mablag' talab qilgan. Endi ana shu tajriba-sinov ishlari uchun sarflanadigan xarajatning maxsus jamg'armalar hisobidan qoplab berilishi soha mutaxassislariga katta ruhiy va moddiy dalda bo'lmoqda. Iqtidorli talaba o'z g'oyasini shunchaki qog'ozga tushiribgina qolmay, uni muvaffaqiyatli tijoriylashtirish asosida tayyor mahsulot



darajasiga olib chiqish imkoniga ega. Ta'lim dargohlari huzurida ochilayotgan yangi avlod korxonalari, xususan, intellektual salohiyatga tayangan spin off loyihalar shunchaki tajriba maydonchasi bo'lib qolmaydi. Ularning sarmoyaviy fondiga ulush qo'shish va olingan sof foydani yana bevosita ilm-fanga yo'naltirish mexanizmining qonuniy kafolatlanayotgani iqtisodiy mustaqillik sari tashlangan salmoqli qadamdir.

Vazirlik tizimida va universitetlar huzurida tashkil etilayotgan yangi innovatsion korxonalar hamda ilmiy ekotizimlar amalda iqtidorli yoshlarning ko'nikmalarini real iqtisodiyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Mazkur yangicha ilmiy-amaliy platformalar orqali nafaqat muhandislar, balki jamiyathunos va tilshunos izlanuvchilarning ham o'z intellektual salohiyatini tijoriylashtirishi ko'zda tutilgan.



Amir Temur tavalludining 690 yilligi

# ADOLAT VA QONUN USTUVOR BO'LSA, DAVLAT KUCHLI BO'LADI

**Amir Temur barpo etgan davlat nafaqat harbiy kuch, balki aniq qonunlar, qat'iy intizom va samarali boshqaruv orqali mustahkamlangan. Uning davlatchilik merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlari uchun muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qilmoqda.**



**Ravshan IKROMOV,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

Qonun ustuvorligi demokratik va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bo'lib, u jamiyatda barcha uchun qonunning tengligini anglatadi. Ya'ni davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar bir xil darajada qonunga bo'yusinishi shart.

Sohibqiron davlat boshqaruvida aynan shu tamoyilga ustuvor ahamiyat bergan. Uning siyosiy qarashlarida qonun davlatning tayanchi, adolat esa uning asosiy mezonini sifatida namoyon bo'ladi.

Temuriylar davrida qonunlarga rioya qilish majburiy xarakterga ega bo'lib, hatto yuqori mansabdor shaxslar ham qonun oldida javobgar hisoblangan. Bu davlat tizimida tartib-intizom va barqarorlikni ta'minlagan. Qonun ustuvorligi nafaqat jazo tizimi, balki oldini olish choralarini sifatida tarbiya va mas'uliyat hissinii oshirish orqali ta'minlangan hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilgan.

Amir Temur o'z siyosatini aynan adolat tamoyiliga qurgan. U xalq manfaatlarini himoya qilishni davlatning eng muhim vazifasi deb hisoblagan. Har qanday zulm, nohaqlik va adolatsizlikka qarshi qat'iy kurashgan.

"Temur tuzuklari"ga huquqiy tizimning mustahkam poydevori sifatida qarash mumkin. Ushbu asar o'sha davr uchun o'ziga xos qonunlar majmuasi bo'lib, unda davlat boshqaruvining barcha jihatlari qamrab olingan. Xususan, davlat boshqaruvi tartibi, harbiy intizom, soliq siyosati, sud va jazo tizimi aniq belgilab qo'yilgan. Tuzuklarning eng muhim jihati unda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining hal qiluvchi o'rin tutishidir. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlagan.

Sohibqiron davlat boshqaruvida aniq tartibli qoidalar va iyerarxiyani joriy etdi. Davlatni idora etishda markazlashgan boshqaruvi ustuvor deb bildi va barcha muhim jarayonlarni yagona siyosiy markaz orqali amalga oshirdi. Uning boshqaruvida lavozimlarga munosib va salohiyatli shaxslarni tayinlash, har bir amaldorning aniq vazifa va javobgarligini belgilash, davlat ishlarida intizomni nazoratini kuchaytirish hamda xalq manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash kabi tamoyillar uning o'rin tutdi. Boshqaruvda mas'uliyat masalasi kuchli yo'lga qo'yilgan bo'lib, har qanday suiste'mol jazosi qo'llanilgan. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari asosiy vazifa sifatida belgilangan. Xususan, sud-huquq tizimi isloh etilmoqda, davlat organlari faoliyatining ochiq va shaffofligi ta'minlanaypti. Korruptsiyaga qarshi kurash kuchaytirilmoqda, fuqarolarning huquq va erkinliklari ishonchli himoya etilishi nazoratga olinmoqda.

Davlat xizmatlari raqamlashtirilishi va byurokratik to'siqlarning qisqartirilishi, o'z mazmuniga ko'ra, Amir Temurning davlatchilik an'analari, xususan, adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlik kasb etadi. "Inson qadri uchun" tamoyili ilgari surilishi esa davlat siyosati markazida inson manfaatlarini turganini yaqqol namoyon qilmoqda.

Joriy yilning 5-fevral kuni mamlakatimiz rahbarining "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

9-aprel kuni Toshkentda "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya

bo'lib o'tdi. Unda 15 mamlakatdan kelgan olim va tadqiqotchilar temuriylar merosini muhokama qildi. Prezidentimiz tadbir qatnashchilariga yo'lga qaratilgan: "Ma'lumki, Amir Temur ota yurti Shahrisabzda o'zi bunyod ettirgan go'zal me'moriy obida — Oqsaroy peshtoqiga "Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shiordir", degan so'zlarni yozdirgan edi.

Bu hikmatli so'zlar bugungi kunimiz uchun ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Chunki tinchlik va adolat hukm surgan juydagina ilm-ma'rif, san'at, adabiyot hamda madaniyat taraqqiy topadi. Shu ma'noda, temuriylar Renessansi nafaqat Turon o'lkasini, balki butun Sharq olamining ilm-fani va madaniy ravnaqiga kuchli ta'sir ko'rsatib, yangi ma'naviy yuksalish davrini boshlab bergani bejiz emas", deya alohida ta'kidladi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham Amir Temur merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, gumanitar fanlar fakultetida "Sohibqiron Amir Temur II Renessansi homiysi" o'quv-tematik xonasi tashkil etilgan. Mazkur xonada ulug' bobomiz davriga oid tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmalik materiallar hamda multimedia vositalari jamlangan. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularda tarixiy tafakkurni shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu o'quv xonasi talabalarga buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning boy tarixiy merosi, ilm-fan, madaniyat va ma'rifati rivojiga qo'shgan ulkan hissasini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Amir Temurning davlat boshqaruvi tizimi qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, u o'z davri uchun nihoyatda ilg'or va samarali model bo'lgan. Bu tizim davlat barqarorligini ta'minlagan, jamiyatda adolat va tenglikni qorov toptigan, xalq ishonchini mustahkamlagan, taraqqiyot uchun zamin yaratgan. Uning adolat, intizom va qonun ustuvorligiga asoslangan siyosati hozirgi davlatchilik rivojida o'rta ma'no bo'lib xizmat qiladi. Kuchli davlat barpo etish, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va xalq farovonligiga erishish yo'lida Amir Temur merosi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar aynan shu tamoyillarga tayanayotgani bilan ahamiyatlidir. Qonun ustuvorligi va adolati ta'minlash faqat huquqiy vazifa emas, balki jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartidir. Shu ma'noda, Amir Temur merosi va zamonaviy islohotlar uyg'unligi mamlakatimizning kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

# FAN VA TA'LIM MUSHTARAKLIGI – TARAQQIYOT POYDEVORI

**Bugun mamlakatimiz taraqqiyoti navbatdagi bosqichga ko'tarilib, dunyo e'tiborini qozonmoqda. Barcha sohada tub burilish yasash, xalqimizning mehnatiga yarasha turmush sharoiti yaratish yangi O'zbekistondagi islohotlarning pirovard maqsadiga aylangan. Bunga erishish esa qator omillarga bog'liq. Ularning orasida ilm-fan va ta'lim mushtarakligi alohida ahamiyat kasb etadi.**



**Rustam TOJIYEV,**  
Farg'ona davlat texnika universiteti rektori, professor

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ishlar sifat jihatdan yangi bosqichga chiqmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Uning ijrosini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Ilm-fan va ta'lim-tarbiya ishlarini rivojlantirishning aniq maqsadli dastur va kompleks chora-tadbirlari shakllantirildi. Pirovardida ular bugun erishilayotgan yutuqlarga puxta zamin hozirladi. Bunga Farg'ona davlat texnika universiteti faoliyatida misol ko'p.

Ilm-fan va ta'lim rivoji ko'p jihatdan kadrlarga bog'liq. Biroq uzoq yillar mobaynida bu jihatga e'tibor berilmagani tufayli oliy ta'lim tizimida ilmiy darajali kadrlar va ilmiy darajasi bo'lmagan

xodimlar maoshi o'rtasidagi tafovut deyarli sezilmadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Ko'plab ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ishini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Bugun esa ushbu masalalarga jiddiy e'tibor qaratilayotgani tufayli vaziyat butunlay o'zgardi. Hozir dissertatsiya yoqlagan tadqiqotchilari va ilmiy rahbarning mehnati yetarlicha moddiy rag'batlantirilaypti. Kadrlar qo'nimsizligiga barham berilgan. Professor-o'qituvchilarning turmush darajasi ancha yaxshilangan. Sohada korruptsiya holatlarining ham oldi olinaypti.

Ilgari tadqiqotchilari tayyor ilmiy ishini yoqlash uchun ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash izlab ovora bo'lardi. Endi esa oliy ta'lim muassasalarining o'zida bunday kengashlar bor. Dissertatsiya ishlarini masofaviy himoya qilish tartibi joriy etilgan. Bu ishlar o'zining dastlabki samarasini bera boshladi.

Universitetimizda o'qitish sifatini oshirish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifalardan. Shu maqsadda bugun 70 dan ortiq yirik korxonaga va tashkilot bilan hamkorlikda dual ta'lim tizimi joriy etildi. Bu orqali talabalar o'z bilimini bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlab olaypti. 60 ta korxonada kafedralarimiz filiali faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, 165 nafar ishlab chiqarish mutaxassisi dars jarayoniga jalb etilgan. O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish doirasida 1000 dan ortiq fan dasturi xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqildi. 1300 dan ziyod yangi o'quv-uslubiy material yaratildi, 103 ta darslik va 112 ta o'quv qo'llanma nashr etildi. Moddiy-texnik baza ham sezilarli darajada mustahkamlandi. Zamonaviy laboratoriya jihozlari, muhandislik kompyuterlari, SMART auditoriyalar va interaktiv panellar ta'lim jarayoniga joriy etildi. Axborot-resurs markazida 1 milliondan ortiq adabiyot jamlangan.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham sezilarli natijalarga erishildi. Erasmus+, Horizon 2020 dasturlari doirasida, GIZ, JICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Universitetimizga xalqaro konsorsiumlar doirasida 7 million dollardan ortiq investitsiya jalb qilindi. 700 dan ortiq talaba akademik mobillik dasturlarida qatnashdi, 100 dan ziyod professor-o'qituvchimiz xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirdi.

Ilmiy va innovatsion faoliyat OTM rivojining asosiy ustunlaridan. Bugun universitetimizda ilmiy salohiyat 47,3 foizni tashkil etadi. Xalqaro va mahalliy jurnallarda minglab maqolalar chop etildi. Qariyb 500 ta intellektual mulk obyekti ro'yxatdan o'tkazildi. Ta'lim jarayonini boshqarish, talabalar faoliyatini monitoring qilish va professor-o'qituvchilar reytingi uchun zamonaviy axborot tizimlari keng joriy etildi. Masofaviy ta'lim platformalari esa o'qitish qamrovini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida universitet hududida va shahar miqyosida ko'chat ekish, hududlarni obodonlashtirish ishlarida talabalar faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, "Kitob ulashaman" aksiyasi orqali talabalar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, mutolaaga qiziqishni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu aksiya doirasida yoshlarga yuzlab kitob tarqatildi. Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish maqsadida "Sog'lom hayot" aksiyasi muntazam tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, teatr, muzey va boshqa madaniy maskanlarga uyushtirilayotgan ekskursiyalar talabalarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini kengaytirish, milliy va jahon madaniyatiga qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday madaniy tadbirlar yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirish va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash uchun ham zamin yaratadi.

Umuman olganda, universitetda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimli va samarali tashkil etilgan bo'lib, talabalarni yangi O'zbekiston istiqbolli uchun beraf bo'lmagan avlod vakillari etib tarbiyalashga yo'naltirilgan.





Mediatur

MAHALLA

# O'ZGARISHLAR MAYDONI

O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda Jurnalistlar uyushmasi tomonidan Prezidentimizning mustaqilligimizning 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan mediaturda jurnalistlar uchun faqatgina raqamlar bilan emas, balki yurtdoshlarimiz turmushidagi ijobiy o'zgarishlar bilan ham yaqindan tanishish imkoniyati bo'ldi.



Qarorda yangi O'zbekistondagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan yangilanishlar va yutuqlarni keng yoritish, iqtisodiyotimiz barqaror sur'atda jadal rivojlanish natijasida fuqarolarimizning turmush farovonligi ortib borayotganini ko'rsatib berish vazifasi belgilangan.

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq, Piskent va Bo'ka tumanlariga safar davomida aynan shu jihatlar — aholi farovonligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar, hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar va ilg'or tajribalar bilan tanishdik, guvohi bo'ldik.

Mediatur avvalida O'zbekiston mahallalari uyushmasi mas'ullari jurnalistlarga yurtimizdagi 8992 ta mahalladagi yangiliklar, istiqbolliq rejalar hamda "mahalla yetiligi" orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, farovonligini oshirish va xavfsiz muhit yaratish borasida qilinayotgan ishlar haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Bugungi kunda 3 million 200 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan Toshkent viloyatida 883 ta mahalla mavjud. 2026-yil yakuniga qadar viloyatda yana 11 ta yangi mahalla binosi qurilib, ularni foydalanishga topshirish, ijtimoiy reyestrda turgan 100 ta oilaga quyosh panellari o'rnatish rejalashtirilgan. Bu chora-tadbirlar aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, energiya tejamliligini oshirish va mahallalar faoliyati samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

## Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik

Mediatur doirasida dastlab O'rta Chirchiq tumanidagi Do'stlik mahallasiga borildi hamda u yerda "mahalla yetiligi" faoliyati, aholi bilan



ishlash tizimi va amaliy natijalar bilan yaqindan tanishildi.

Mahalladagi sumalak sayli milliy qadriyatlarimiz, hamjihatlik va qo'shinchilik an'analarining yorqin namunasi aks ettirgan (71) 233-11-07.

ishirokidagi shaxmat o'yinlari orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan tashabbuslar namoyish qilindi.

Abdulla Qodiriy ko'chasida yashovchi G'ulom Abdunazarov "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida oilaviy tadbirkorlikni muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan. U tomorqasidan bir mavsumda ikki marta hosil olmoqda. Natijada yillik daromadi 110-120 million so'mni tashkil etayotir. Bu "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik" hikmatining amaldagi isbotidir. "Do'stlik" mahalla servis kompaniyasi faoliyati bilan tanishish jarayonida qishloq hududlarda ham zamonaviy infratuzilma yaratish, obodonlashtirish, aholiga 23 turdagi maishiy va servis xizmatlarini ko'rsatish borasida yo'lga qo'yilgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Ushbu xizmatlar aholi turmush farovonligini oshirish, kundalik hayotda qulayliklar yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Jarayonda mahalla bugun nafaqat ijtimoiy institut, balki islohotlar amalga oshirilayotgan, inson manfaati ustuvor bo'lgan haqiqiy hayot maydoni ekanini yana bir bor his qildik.

## Bandlik va tadbirkorlikka e'tibor

Keyingi manzilimiz Piskent tumanining Mingtepa mahallasi bo'ldi. Bu yerda aholi bandligini ta'minlash, tomorqachilik madaniyatini yuksaltirish, oliyaviy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdik.

Ayniqsa, kelsalarga ko'rsatilayotgan hummat-e'tibor, ularning hayotiy tajribasidan samarali foydalanishga qaratilgan tashabbuslar mahallada ijtimoiy muhitni yanada mustahkamlayotgani e'tiborga molik.

Mingtepa mahallasida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida yangi uzumzorlar barpo etilib, yerdan unumli foydalanish va daromad manbalari ko'paytirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

O'rikzor ko'chasida yashovchi Abdujalil Husanboyev xonadonidagi 20 sotixli uzumzor esa mehnat va tadbirkorlikning yorqin namunasi. Bu yerda "Namangan chillakisi" va "Rizamat" navlari yetishtirilib, uzum qatorlari orasiga sabzavotlar ekish orqali yerdan samarali foydalanilmoqda. Ertal bahorda yetishtirilgan mahsulotlar allaqachon ichki bozorlarga chiqarilib, oila daromadi mehnat samarasiga muvofiq ancha oshgan. Oila a'zolari ahil-inoqlikda mehnat qilib, o'ziga to'g'ri va xotirjam hayot kechirmoqda.

Yana shu ko'chada istiqomat qiluvchi Adolat ona esa farzandlari va nevaralari bilan birga uzumchilik, sabzavotchilik va ko'chachilikni yo'lga qo'ygan. Tomorqasida yetishtirilgan mahsulotlarini bozorlarga yetkazib beradi. Xonadonidagi 6 bosh qoramoli barqaror daromad manbaini shakllantirgan.

Bo'ka tumanining Navobod mahallasida qadriyatlariga ko'rsatilgan ehtirom va aholining o'zaro hamjihatligi safarimizning eng esda qolarli lahzalari bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Mahalla ahli bilan kechgan samimiy suhbatlar, mazmundor va rang-barang musiqiy dasturlar, bolajonlar o'rtasida tashkil etilgan futbol o'yinlari ko'nglimizni yoritdi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mahalla nafaqat aholini birlashtiruvchi ijtimoiy maskan, balki islohotlar amalda o'z ifodasini topayotgan hayot maydoniga aylanoqda. Unda inson manfaati, uning farovon hayoti va ertangi kunga bo'lgan ishonchi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Guvohi bo'lganimizdek, amalga oshirilayotgan har bir tashabbus, har bir yangilik, avvalo, inson qadriini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori aynan mahalladan boshlanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Gulichehra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Oltin meros

# Ham shifo, HAM MA'NAVIY QALQON



Zohidjon JUMANAZAROV, Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI muhandisi, "Yangi O'zbekiston yulduzleri" milliy mukofoti sovrindori

"Maqom" so'zining o'zidayoq qandaydir sirli, yengil tortishish qonunlariga bo'yunmaydigan, qalbni yuksalkarga chorlovchi salmoq yashirin. Biroq aksariyat uni ko'pincha shunchaki musiqa, moziydan qolgan odatiy meroslar qatorida qabul qilishga o'rganib qolgan. Aslida, maqomlar bir-biriga ulanib ketgan oddiy kuylar majmuasi emas, insoniyatning olam haqidagi eng sirli, eng chuqur o'y-mushohadalarni tovushlar orqali ifodalovchi muazzam arxitektura mo'jizasining o'zinasidir. Registon peshtoqlarida yoxud Go'ri Amirning go'zal naqshlarida nechog'liq aql bovar qilmay riyoziy aniqlik va Yaratganga intilish mujassam bo'lsa, maqomlarning har pardasida, qalbni titratuvchi har bir nolasida xuddi shunday buzilmas koinot qonuniyatlari bor. Yengil-yelpi, o'tkinchi ohanglar kishining shunchaki jismoniy charchog'ini aritisa, maqom insonni bevosita o'zi bilan, vijdoni bilan yolg'iz qoldiradi.

Nyu-Yorkning osmonni to'sgan sershovqin ko'chalari yoxud Yevropaning siyosiy minbarlarida turib O'zbekistonga nazar tashlagan xorijlik tahlilchi dastlab quruq iqtisodiy raqamlarga, strategik joylashuviga e'tibor qaratishi o'z-o'zidan tushunarli holat. Biroq bu tabarruk zaminning, bu davlatning haqiqiy va jonli ruhiy xaritasini chizish uchun, avvalo, uning musiqasiga — diltortar yurak urishiga quloq tutmoq kerak. Nega bugun davlatimiz aynan maqom san'atini milliy g'urur timsoli darajasiga olib chiqmoqda degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Buning sababi ravshan: o'zining asl qadr-qimmatini, kimligini chuqur anglagan millatgina xalqaro maydonda munosib o'rin egallay oladi. Chet ellik sarmoyador, diplomat yoxud sayyoh O'zbekistonga kelganda, G'arb yoki Sharq madaniyatiga ko'r-ko'rona, ko'lanka misoli taqld qilayotgan jonsiz jamiyatni emas, o'zining ming yillik sivilizatsiyasiga tayanib, ko'ksini tog'dek kerib turgan qadimiy va ayni paytda zamonaviy xalqni ko'rishi shart.

Iqtisodiy islohotlar qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilmasin, ular xalqning madaniy, botiniy yuksalishi bilan yelkama-yelka, hamqadam bormasa, yakunda butun boshli jamiyat qandaydir ma'noda faqat qorni to'q, ammo qalb ko'zi ko'r, hissiz iste'molchilar to'dasiga aylanib qolish xavfi hamisha mavjud. Raqamli texnologiyalar

Odamdaz axborot to'iqinida yelkansiz kema kabi chayqalayotgan, qadriyatlar ko'lami va qadri soniyalar ichida o'zgarib borayotgan suronli asrda yashayapmiz. Shunday tahlilali pallada har qanday davlatning chinakam qudrati uning yadroviy salohiyati yoki ko'zni qamashtiruvchi binolari bilan o'lchanmay qolgani ham ayni haqiqat. Asosiy mezon xalqning yengilmas immuniteti, asrlar osha sayqal topgan buyuk irodasiga borib taqaladi. Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, ayni damda o'zining qayta tug'ilish va yangilanish davrini shiddat bilan kechirayotgan O'zbekiston xuddi shunday globallashuv sinovlari qarshisida o'zining mustahkam madaniy qalqonini — maqom san'atini maydonga olib chiqmoqda.

inson hayotini qulaylashtiradi, eng og'ir ishlarni oson qiladi, lekin huvillab qolgan qalbni hech qachon to'ldira olmaydi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lini tanlarkan, ayni shu o'ta nozik muvozanatni saqlab qolish ustida katta ishlar qilmoqda. Bugun poytaxtimizda va viloyatlarda muhtasham biznes markazlari qurilmoqda. Odamlar

shafeligida yanada keng quloch yozdi. Bu shunchaki musiqiy festival emas, balki maqom ijro uslublari va rivojlanish istiqbollari jahon mutaxassislari bilan muhokama qilish, madaniy almashinuvlarni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro yo'nalish bo'ldi.

Yoshlar ongi va shuurini asrash masalasi o'tmishning hech bir davrida bugungidek



zamon tezligiga mos tezyurur poyezdlarda harakatlanmoqda. Mamlakat global raqamli bozorga shahdam, dadil qadamlar bilan integratsiyalashmoqda. Biroq shunday paytda ongimiz va shuurimiz, albatta, o'zimizning azaliy, bobolar qoni tomgan tuprog'imizdan oziqlanishi hayot-qamot masalasidir.

Mamlakatimizda xalqaro darajadagi maqom san'ati anjumanlarining o'tkazilishi, joylarda yuzlab maktablar ochilib, uzilub qolgan ustoz-shogird an'analarning qayta tiklanishi davlatimizning naqadar uzoqni, asrlarni ko'zlab ish tutayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbek milliy maqom san'atini shunchaki ko'ngilochar dasturlar darajasidan olib chiqib, davlat siyosatining mustahkam o'ziga aylantirish yo'lidagi tarixiy qadam — Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi qarori bilan O'zbek milliy maqom san'ati markazining tashkil etilishi bo'ldi. Bu hujjat maqomni tizimli o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib qilishning huquqiy poydevorini yaratdi. 2022-yilda esa markazning hududiy bo'limlari ochilib, bu qadimiy merosni butun respublika bo'yab yosh avlodga yetkazishning uzluksiz amaliy mexanizmi ishga tushdi.

Milliy g'ururimizni jahon sahnasiga olib chiqqan yana bir diplomatik vosita Xalqaro maqom san'ati anjumanlaridir. Asosan har ikki yilda bir marta yuqori darajada o'tkaziladigan bu yirik madaniy platforma 2018-yil Shahrisabzda 73 davlat ishtirokida muvaffaqiyatli boshlangan bo'lsa, 2024-yil iyunida Zominda UNESCO va ISESCO

o'tkir, keskin va hatto fojiali ahamiyat kasb etmagan. Qo'lidagi mitti aqlil qurilmalar orqali butun dunyoning axborotini bir soniyada miyasiga singdirib olayotgan yigit-qizlarni endi quruq, jonsiz taqirlar yoki shunchaki balandparvoz nashitlar bilan tarbiyalab bo'lmasligi aniq. Ularga tomir-tomirini qamrab olgan ommaviy madaniyatga muqobil bo'la oladigan, biroq undan chandon quvvatli, yorqin va jozibali tirik qadriyatni taqdim etishimiz o'ta muhim. Maqomning sehrli ohanglarini tinglab ulg'aygan, Hazrat Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy kabi mutafakkirlar g'azallarining mag'zini chalqan yosh avlod hech qachon axloqsizlikning qora chohiga qulab tushmaydi. Bunday insonlarda mudom ichki mustahkam senzura, go'zallikni chirkinklikdan, aslni soxtadan ko'z yumib ham ajrata oladigan mukammal va nozik did shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, maqom maktablarining ko'payishidan madaniy mudofaa tizimi mustahkamlanib borayotganini payqash qiyin emas.

Tarixning guvohlik berishicha, buyuk sivilizatsiyalar o'zining san'atini unutgan lahzada tanazzulga yuz tutgan. Milliy qiyofa yo'qolgan joyda ma'naviy qaramlik boshlanishi muqarrar. Xalqimiz uzoq va mashaqqatli o'tmish davomida qanchadan-qancha suronli yillarni, talafot shafqatsiz qatag'onlarni boshdan kechirmadi deyiz. Biroq uni el, xalq sifatida butun saqlab qolgan kuch aynan ona tili va kuyga sadoqatdir. Qatag'on yillarida ham maqom kuylagan hozflarning jasorati bugungi erkinligimizning poydevori, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda davlat darajasida san'at ahliga yuksak e'tibor qaratilmoqda, erkin ijod qilish, bebaho merosimizni kelajak avlodga xuddi asliyatdek to'kis, toza holatda yetkazish uchun barcha qulaylik yaratib berilmoqda.

Siyosiy maydonda iqtisodiy o'sishlar va shartli inqirozlar o'rni muttasil almashib turadi. Ammo jamiyatning hayotbaxsh ruhiyatini tasvirlovchi musiqiy meros zamonlar osha mangulikka daxidor bo'lib yashayveradi. Bugun yuritilayotgan yuksak madaniy siyosatning eng donishmand jihati shundaki, u o'zining haybatli inshootlarini ertaga shamol uchirib ketadigan omonat qum ustiga emas, balki asrlar sinovidan mardona o'tgan metin qoya ustiga qurmoqda. Bu xalq sifatida madaniy umrbuqiylikning asosiy kafolatlaridandir.



6

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefonlari: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446. 30646 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 22:40